

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
FARMOYISHI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KEÑESINIŇ
BIYLIGI**

2023 - yil 29 - avgust

189-13-0-F/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi Qonunining 8 va 30-moddalari va Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorgi Kengesining Boshlig'i A.O'rinbayevning 2023-yil 31-iyuldagi "Qoraqalpog'iston Respublikasida eksport sohasida olib borilayotgan ishlar hamda eksportyor korxonalarining ishlarini yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash, sohadagi muammolarni bartaraf etish choralari haqida"gi 01-134-son majilis bayonnomasi hamda Moliya vazirligining 2023-yil 17-avgust kungi pc/12-02/3320-sonli xatini inobatga olib:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi (R.Sultanov) budjet tashkilotlari bo'lgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining birinchi o'rinbosari hamda Eksport salohiyatini oshirish bo'limi boshlig'i - jami 2 odam) vakillarining tashrif xarajatlari uchun zarur bo'lgan 16 715 824, 00 (o'n olti million yetti yuz on besh ming sakkiz yuz yigirma to'rt) so'm mablag'larini Vazirlar Kengashining zaxira jamg'armasi hisobidan qonunchilikda belgilangan asosda va tartibda ajratish choralari ko'rsin.

2. Nukus shahar va barcha tumanlar hokimlari xizmat safari bilan aloqador bo'lgan xarajatlarni tuman mahalliy budjet hisobidan qonunchilikda belgilangan asosda va tartibda ajratsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat moliyaviy nazorati boshqarmasi (B. Utambetov) dan ajratilgan mablag'larning qonunchilikda o'rnatilgan asosda va tartibda, maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o'rnatish so'ralsin.

4. Ushbu farmoyishning qonunchilikka muvofiq bajarilishini nazorat

qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari
A.Oteuliyev zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F. Ermanov